



POLITICAL, ECONOMIC, AND CULTURAL RELATIONS IN THE TRANSATLANTIC SLAVE TRADE SYSTEM

Botir Normurodov

*Graduate of the National University of Uzbekistan
Tashkent, Uzbekistan*

ABOUT ARTICLE

Key words: extraversion, creolization, historiography, slave trade, precolonialism, industrial revolution, political culture.

Received: 25.08.25

Accepted: 26.08.25

Published: 27.08.25

Abstract: This article examines the transatlantic slave trade in the modern era in relation to the concept of “extraversion” in African history. It draws on contemporary foreign scholarship to demonstrate that during the long period of slavery, elites used external connections to increase their wealth and power, opening up new goods and ideas to societies, and fostering cultural creolization.

ATLANTIKA ARO QUL SAVDO TIZIMIDA SIYOSIY, IQTISODIY VA MADANIY MUNOSABATLAR

Botir Normurodov

*O'zMU bitiruvchisi
Toshkent, O'zbekiston*

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ekstraversiya, kreolizatsiya, tarixshunoslik, qul savdosi, mustamlakadan avvalgi davr, sanoat inqilobi, siyosiy madaniyat.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Yangi davrdagi Atlantika aro qul savdosi masalasi Afrika tarixidagi “ekstraversiya” tushunchasi bilan bog'liq holda ko'rib chiqiladi. Unda zamonaviy xorijiy tadqiqotlar tahlili asosida uzoq davom etgan qulchilik davrida elitalar o'z boylik va hokimiyatini oshirish maqsadida tashqi aloqalardan foydalanishi va buning natijasida jamiyatlar uchun yangi tovarlar va g'oyalarga yo'l ochilishi, shuningdek, madaniy kreollashuv yuzaga kelganligi ko'rsatib beriladi.

ПОЛИТИЧЕСКИЕ, ЭКОНОМИЧЕСКИЕ И КУЛЬТУРНЫЕ ОТНОШЕНИЯ В СИСТЕМЕ ТРАНСАТЛАНТИЧЕСКОЙ РАБОТОТВОРЧЕСТВА

Ботир Нормуродов*Выпускник Национального университета Узбекистана
Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: экстраверсия, креолизация, историография, работорговля, доколониализм, промышленная революция, политическая культура.

Аннотация: В этой статье вопрос о трансатлантической работорговле в Новое время рассматривается в связи с концепцией «экстраверсии» в истории Африки. На основе анализа современных зарубежных исследований в ней показано, что в течение длительного периода рабовладения элиты использовали внешние связи для увеличения своего богатства и власти, что, в свою очередь, открывало доступ обществам к новым товарам и идеям, а также приводило к культурной креолизации.

Kirish. Atlantika qul savdosi nafaqat iqtisodiy tizim, balki butun Afrika, Yevropa va Amerikadagi jamiyatlarni qayta shakllantirgan siyosiy va madaniy jarayon edi. Uni ekstraversiya, kreolizatsiya va qaramlik nuqtai nazaridan o'rganish tashqi aloqalar kuch, o'ziga xoslik va doimiy tengsizliklarni qanday shakllantirganini ko'rsatadi. Fransuz tarixchi olimi Jan-Fransua Bayart: "O'tmishda ham, hozirgi davrda ham afrikalik hukmdorlar boylik va hokimiyatlarini kengaytirish maqsadida tashqi siyosiy tuzilmalar xizmatlaridan foydalanadilar"[1], deb ta'kidlagan. Yevropada sanoat inqilobi ketayotgan bir davrda Afrikada yerga egalik qilishning sodda shakllari hukmronlik qilishi aholini doimiy ravishda mamlakatlar hududidan chiqishga undar va bu yo'lda hukmdorlarning o'ylamasdan chiqargan chegaralar to'g'risidagi qonunlariga qarshi borishga majbur bo'lar edi. Bunday vaziyatda mahalliy hukmdorlar xorijlik qurolfurushlar va ularni qo'llab turgan mustamlakachi mamlakatlar bilan o'ta o'g'ir shartlar asosida kelishuvlar imzolar edi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili

Erkin fikrli ba'zi g'arb olimlari, xususan F.Kuperning mustamlakachilik ta'siriga tushib qolgan Afrika mamlakatlarini "darvozabonlar" sifatida ko'rishi ham yuqoridagi sabablarga asoslanadi, ya'ni hukmdorlar aholining hech bir tabaqasini xorijliklar bilan aloqa qilishiga yo'l qo'ymagan[2]. Bunday yondashuv mahalliy hukmdorlarning ekspluatatsiya, aholini tashqi dunyoga chiqish imkoniyatini nazorat qilish, siyosiy va iqtisodiy gegemonlikni tutib turish, hokimiyatni hech kimga bermaslik istaklari bilan bog'liq edi.

So'nggi yillarda xorijda qullikning rivojlanishi va ichki oqibatlari haqidagi tadqiqotlar sezilarli darajada ko'paygan bo'lsa-da, Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosini

o'rganayotgan tarixchilarning oz qismi yuqoridagi yondashuvdan bevosita foydalangan. Bu esa nafaqat qul savdosini Afrika tarixining uzoq davomiy jarayonlari doirasida joylashtirish, balki Atlantika qul savdosiga oid turli ilmiy yondashuvlarni birlashtirish imkonini ham boy berishni anglatadi[3]. Ekstraversiya va qulchilik o'rtasidagi bog'liqlikni, ehtimol, mahalliy hukmdorlar misolida tushuntirish qulayroq. XVI–XVII asrlarda Kongo, XVII–XVIII asrlarda Segu va Futa Jallon, XVIII–XIX asrlarda esa Dahomey va Ashanti davlatlarida harbiy ekspansiya orqali o'lpon va asirlarni qo'lga olganlar. Ushbu asirlarning bir qismini armiyaga va ikkinchi qismini esa hokimiyatni saqlab qolish uchun qurol-yarog' va hashamatli buyumlar evaziga yevropaliklarga sotib yuborishgan[4].

Boshqalarni qul qilish evaziga hukmdorlar o'z jangchilarini qurol-yarog', savdo mollari va ko'pincha xotinlar bilan ham taqdirlaganlar. Chetga sotiladigan odamlar dastlab ushbu davlatlardagi ichki kurashlar natijasida qo'lga tushgan mag'lublar bo'lishgan, ammo vaqt o'tishi bilan chekka hududlarga uyushtirilgan reydlar orqali ham odamlar qul sifatida Yevropa savdogarlariga yetkazib berila boshlandi. Bu davlatlarning asosiy iqtisodiy kuchi boshqa turdagi mahsulotlar savdosiga va intensiv dehqonchilikka tayansa-da, qul savdosi bunday davlatlarning harbiy qudrati uchun muhim o'rin tutar edi[5].

So'nggi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, markazlashmagan jamiyatlar faqat mahalliy hukmdorlarning nishoni bo'lib qolmagan. Ular mudofaa maqsadida qayta tashkil topib, ba'zan qul savdosidan o'z manfaatlari uchun foydalanganlar. Masalan, Gvineyadagi Balantalar XV–XVI asrlarda tarqoq xonadonlarda yashar, ham ekinlarini yetishtirar ham mintaqaviy savdoda cheklangan darajada ishtirok etar edilar. Biroq dengiz ortidan qulga bo'lgan talab ortishi bilan ular qul reydlariga tobora ko'proq duch kela boshladilar. Shunga javoban ular yirik qishloqlarga ko'chib o'ta boshladilar va oziqaviyligi jihatdan samaraliroq bo'lgani uchun dehqonchilikda guruch yetishtirishni boshlaganlar. Ammo guruch yetishtirish uchun ularga temir asboblari kerak edi. Gvineya-Bisau mintaqasidagi qirg'oqbo'yi xalqlari uzoq vaqt davomida Mandinka savdogarlari bilan oz miqdorda temir olish uchun savdo qilib kelganlar[6].

Shuningdek, bunday guruhlar ichida ayrim shaxslar o'z manfaatlari yo'lida qulchilikka murojaat qilganlar. Yuqori Gvineyada va boshqa hududlarda markazlashmagan jamiyatlar a'zolari ba'zan yirik davlatlarning mijozlariga aylangan, ularga qullarni yetkazib berish orqali o'z hududlarida hokimiyat va nufuzlarini kengaytirganlar. Markazlashmagan jamiyatlar va qul savdosi bo'yicha adabiyotlarni tahlil qilar ekan, ingliz olimlari ularning Atlantika bozorlarida faol ishtirok etishida avlodlar o'rtasidagi ziddiyat muhim omil bo'lganini ta'kidlashadi[7]. Shunday qilib, ekstraversiya turli darajalarda va bir-biriga o'xshash shakllarda namoyon bo'lgan. Jamoaviy darajada — markazlashgan davlatlarda qullarni Atlantika iqtisodiyotiga sotish siyosiy

markazlashuvni mustahkamlab turgan bo'lsa, markazlashmagan jamiyatlar esa omon qolish uchun qullarni almashishga yo'naltirilgan. Bu jarayonda "darvozabonlik" tushunchasi juda muhim ahamiyat kasb etgan. Qul savdosi — xuddi "globallashuv" kabi — butun jamiyatlarni emas, balki muayyan savdo nuqtalarini bir-biriga bog'lagan. Markazlashgan davlat rahbarlari savdo markazlarini nazorat qilishga intilganlar; buning uchun qirg'oq portlarini bosib olish yoki xorijiy savdogarlarni faqat rasmiy vakolat berilgan, nazorat ostidagi va soliqqa tortilgan shaxslar bilan savdo qilishga majbur etishga harakat qilganlar. Masalan, Ouidah shahri Yevropa savdogarlari uchun Dahomey qirolligi asosiy savdo chiqish nuqtasiga aylangach, davlat tashqi savdosining bosh ma'muri – "oq tanli odamlar boshlig'i" deb atalgan Yovogan orqali qat'iy nazorat qilib borilgan[8].

Aholisi ancha zich hisoblangan Biafra qo'ltig'i savdo aloqalari uchun juda ko'p imkoniyatlarga ega hudud edi. Shu omil qul savdogarlarining ko'payishiga olib kelishi tabiiydek tuyular edi. Biroq XVIII asrning boshlariga qadar bu hududdan dengiz ortiga qullarni sotish hajmi nisbatan kam bo'lgan. Keyinchalik, Atlantik okeani orqali savdo tarmoqlari kengayishi bilan qul savdosi rivojlanib, katta miqdordagi qul eksporti uchun markazlashtirildi[9].

Manbalarda ko'rsatilishicha, Kabo-Verde va unga yaqin G'arbiy Afrikaning ayrim hududlarida dastlabki Atlantika kreol jamiyatlari vujudga kelgan. Bu jamiyatlarda yashovchi kishilar yevropalik dengizchilar bilan savdo orqali yuzaga kelgan yangi Kriolu tilida so'zlashgan[10].

Qirg'oq bo'yi savdosi va u bilan bog'liq madaniy moslashuvchanlik Yuqori gvineyaliklar va transsahro savdo diasporalari a'zolari o'rtasidagi ilgari mavjud bo'lgan aloqalarini eslatar edi. Mandinka xalqi qirg'oqqa tomon kengayib borish bilan Yuqori gvineyaliklar allaqachon "birlamchi kreollashuv" jarayonini boshlab yuborgan edilar. Ular nafaqat mahalliy bo'lmagan xorijiy savdogarlarni, balki islom diniga e'tiqod qiluvchi kishilarni ham o'z jamiyatlariga qo'shib olgan edilar. Bu tendensiya keyingi davrlarda ham saqlanib qoldi: yevropalik savdogarlar, asosan o'z yurtlaridan quvilgan va madaniy jihatdan moslashuvchan iberiyalik "yangi xristianlar" Yuqori Gvineya qirg'og'ida qullarni sotib olishga tobora ko'proq intildilar. Atlantika okeani orqali savdo aloqalari Afrika hukmdorlariga yangi imkoniyatlar yaratib bergan edi. Masalan, 1488-yilda Jolof shahzodasi Portugaliyaga borib, raqibiga qarshi siyosiy ittifoq tuzishga harakat qilgan. Kassanké elitalari esa Kabo-Verde "yangi xristianlar"ga bundan ham kengroq doirada qullar yetkazib berish orqali Mandinka imperiyasi tarmog'ida mavqelarini mustahkamlab, ular bilan materikda qo'shni bo'lib yashadilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Mavzuni tadqiq etishda xorijiy ilmiy adabiyotlar tahlil qilinib, tarixiy–qiyosiy metoddan foydalanildi. Shuningdek, manbalar va olingan ma'lumotlar analitik metod orqali izohlab berildi.

Tahlil va natijalar

Shu o'rinda Yuqori gvineyaliklar va ularning iberiyalik savdo hamkorlari o'rtasidagi o'zaro madaniy ta'sirlar to'g'risida ham alohida to'xtalib o'tish joiz. Ushbu madaniy aloqalar faqat savdo-sotiq bilangina emas, balki o'zaro nikohlar orqali ham shakllangan. Savdo va savdogarlar faoliyati G'arbiy Afrikaning Atlantika davridagi madaniy tarixining ham, mintaqaning Atlantika dunyosi bilan munosabatlarining ham ajralmas qismi edi[11]. Biroq biz asosan zo'ravonlik, beqarorlik va oxir-oqibat Afrikaning iqtisodiy qaramligi bilan bog'liq masalalarga e'tibor qaratishni lozim topdik.

Shunday qilib, yuqori Gvineya misolida ko'rsatilgandek, Afrikaga xos bo'lgan siyosiy-iqtisodiy andozalar Atlantika okeani orqali qul savdosini shakllantirgan bo'lishiga qaramay, afrikalik jamiyatlar tez orada bu savdo ta'sirida tobe'likka tushib qoldi. Yirik siyosiy tuzilmalar parchalandi, chunki hokimiyat uchun kurashayotgan ko'plab kuchlar xorijiy savdogarlar olib kelgan mahsulotlar (qurol, o'q va harbiy aslahalar) bilan erkin savdo qilishar edi. Bu parokandalik esa mudofaa vositalarini olish uchun tashqi savdoga bo'lgan ehtiyojni kuchaytirib, qaramlikning davomiyligini yuzaga keltirdi. Siyosiy yo'nalishning o'zgarishi zo'ravonlik va beqarorlik bilan kechdi. Ortiqcha mahsulotlar, jumladan, oziq-ovqat va ekin mahsulotlari yevropaliklarning mustamlakalari va ularning kemalariga yuborildi, natijada qishloq xo'jaligidagi mehnat darajasi og'irlashdi, shu bilan birga jamoalar borgan sari ko'proq mudofaaga yo'naltirildi.

Tashqi savdodan manfaatdorlik va insonlarni qul qilish amaliyotining reydlar* orqali samarali amalga oshirilishi mahalliy hukmdorlarga ushbu yo'nalishni o'zlariga kasb qilib olishlariga sabab bo'ldi va ular endi to'liqligicha tashqi bozor talab etadigan tovarlarni yetqazib berar va shu orqali nafaqat o'zlarining iqtisodiy balki siyosiy mustaqilliklarini ham chet elliklarga boy berishdi.

Bir so'z bilan aytganda, Atlantika okeani orqali amalga oshirilgan qul savdosi afrikaliklar hayotida juda katta ta'sir ko'rsatdi. Ushbu jarayon Afrika tarixida eskicha tuzimlarni yana uzoq yillar saqlanib qolishiga sabab bo'ldi va qullik davrini mustamlakachilik davri hamda hozirgi zamon bilan bog'ladi. Garchi Valter Rod qullik savdosida afrikaliklarning o'z ishtiroki va qoloqligining kelib chiqish sabablari bilan bog'liq masalalarni kamroq yoritgan bo'lsa ham, qul savdosining Afrika uchun falokat bo'lganligini ta'kidlaganda yanglishmagan edi.

Bugungi kunda ham ba'zi iqtisodchilar Valter Rodning ushbu fikrlarini davom ettirib, qul savdosi tarixi va Afrikadagi hozirgi qashshoqlik o'rtasida bog'liqlikni aniqlashga urinmoqda. Biroq ushbu mualliflar ishlarning aksariyatida asosan aholining kamayishi va siyosiy parokandalikka urg'u berilgan, mualliflar Afrika siyosiy tuzilmalarini o'zgarmas deb tasavvur qilish bilan birga qul savdosi davri hozirgi zamon orasidagi jarayonlarga deyarli e'tibor qaratmaganlar.

Mavzu bilan bog'liq tadqiqotlar tahlilidan kelib chiqib aytishimiz mumkinki, Atlantika okeani orqali qul savdosi bilan bog'liq jarayonlar garchi zo'ravonlik va beqarorlikni yoygan va qarshilik ko'rsatishni tobora qiyinlashtirgan bo'lsa-da, bu jarayonlarda afrikalik ishtirokchilar bu savdoni vujudga kelishi va uning davom etishida yordam berishgan va elitalarning o'z manfaatlarini ko'zlagan tanlovlari esa butun Afrika xalqiga zarar keltirgan. [12].

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak ekstraversiya dinamikasi orqali Afrika elitalari boylik va hokimiyatlarini mustahkamlashga intildi, ammo ularning bu tanlovi qaramlik va parchalanish jarayonini kuchaytirdi. Kreollashuv jarayonlari esa madaniy moslashuv jarayonlari qanchalik tez kechganligini ochib berdi, ammo ular zo'ravonlik va majburlash tuzilmalari negizida rivojlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ekstraversiya – (lotincha extra – tashqariga va vertere – burilmoq, yo'nalmoq so'zlaridan) Afrikadagi rahbarlar va elitalar o'z hokimiyati va boyligini mustahkamlash uchun tashqi savdo va tashqi kuchlar bilan aloqaga suyanishlari;
2. Kreolizatsiya – (ispancha va portugolcha crioulo so'zidan olingan) Dastlab “Yangi dunyoda tug'ilgan yevropalik” yoki “Afrikadan olib kelingan va Amerikada tug'ilib o'sgan qul” ma'nosida qo'llangan. Afrikadan olib kelingan qullar, mahalliy amerikaliklar va yevropaliklar o'rtasida madaniyatlar aralashuvi;
3. Reydlar – (inglizcha) – raid qurolli yurish, bosqinni ifodalovchi harbiy atama
4. Bayart J.F. The State in Africa: The Politics of the Belly 2nd. – Cambridge: Free Press, 2010. 22 p. Also see J.-F. Bayart, 'Africa in the world: a history of extraversion. – African Affairs: 2000. 217 p.
5. Cooper F., Africa Since 1940: The Past of the Present – Cambridge: Free Press, 2002. 125 p.
6. Richard Reid, 'Past and presentism: the "precolonial" and the foreshortening of African history' // The Journal of African History, . – New York: Pantheon Books, 2011. 135 p.
7. Barry B. Muslim Revolutions and the Atlantic Slave Trade: Senegambia before the Colonial Conquest - Cambridge: 1998. 175 p.

8. Klein M.A., 'The slave trade and decentralized societies', The Journal of African History, - Cambridge: 2001. 95 p.
9. Mamdani M. Citizen and Subject: Contemporary Africa and the Legacy of Late Colonialism – Princeton, NJ: 1996. 10 p.
10. Klein M. The slave trade and decentralized societies. – Cambridge: Free Press, 2010. 65 p.
11. Law R. Ouidah: The Social History of a West African Slaving 'Port', 1727–1892. – Athens OH: 2004. 290 p.
12. Nwokeji G. U. The Slave Trade and Culture in the Bight of Biafra: An African Society in the Atlantic World – Cambridge: 2010. 169 p.
13. Toby Green's The Rise of the Trans-Atlantic Slave Trade in Western Africa, 1300–1589. Cambridge: 2010. 70 p.
14. Green T. The Rise of the Trans-Atlantic Slave Trade in Western Africa, 1300–1589 – Cambridge: 2012. 285 p.
15. Johnson W. On agency // Journal of Social History, NY: 2003. 113 p.